

“O‘zkimyosanoat” AJ Islomoboddagi “Made in Uzbekistan” milliy ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda

// 06 February 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-islomoboddagi-made-in-uzbekistan-milliy-k>
o






2026-yil 5-fevral kuni Pokistonning Islomobod shahrida O'zbekiston-Pokiston biznes-forumi doirasida "Made in Uzbekistan" milliy ko'rgazmasi o'z ishini boshladi.

Mazkur tadbir O'zbekistonning eksport va sanoat salohiyatini xalqaro maydonda namoyish etish uchun muhim platforma bo'ldi.



600 kvadrat metr maydonni egallagan ko'rgazmada iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qamrab olgan 11 ta tematik stand tashkil etildi. Ularda kimyo, neft-gaz, konchilik hamda mudofaa sanoati yo'nalishlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot va yechimlar namoyish qilinmoqda. Ko'rgazmada 100 dan ortiq mahalliy korxonalar o'z mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.

Ko'rgazma ekspozitsiyasida "O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tarmoq korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham o'rin oldi. Bu esa milliy kimyo sanoatining eksport salohiyatini kengaytirish va yangi hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda.





Tadbir doirasida "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov Pokistonda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va savdosi bilan shug'ullanuvchi "FFC" kompaniyasining biznesni rivojlantirish va yangi loyihalar bo'yicha direktori Havaja Nizamuddin Mir hamda "Fatima Group" kompaniyasining biznesni rivojlantirish direktori Saqib Aziz bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Muzokaralar davomida kimyo sanoatida hamkorlikni kengaytirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish va savdo aloqalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.





Shuningdek, bugun ham o'z ishini davom ettirayotgan biznes-forum doirasida Pokistonning tegishli vazirliklari va tadbirkorlik subyektlari bilan B2B formatda uchrashuvlar o'tkazish rejalashtirilgan.